O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 338.48(575.1)

Naimjon R. XOJIQULOV,
PhD, Fan va texnologiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: naimxojiqulov@gmail.com, ORCID: 0009-0007-5495-3893

O‘zMU professori, t.f.d A.Xolikulov taqrizi asosida

THE DEVELOPMENT OF AGRO- AND ECOTOURISM IN UZBEKISTAN DURING THE INDEPENDENCE PERIOD: CHALLENGES AND SOLUTIONS

Annotation

This article analyzes the stages of development of agro and ecotourism in Uzbekistan during the years of independence, its economic and social significance, existing problems and ways to overcome them. Special attention is also paid to the issues of effective use of the tourism potential of rural areas, maintaining ecological balance and developing modern infrastructure.
Key words: agro tourism, ecotourism, rural tourism, ecology, infrastructure, tourism potential, sustainable development.

РАЗВИТИЕ АГРО- И ЭКОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются этапы развития агро- и экотуризма в Узбекистане в годы независимости, его экономическое и социальное значение, существующие проблемы и пути их преодоления. Особое внимание уделяется также вопросам эффективного использования туристического потенциала сельских территорий, поддержания экологического баланса и развития современной инфраструктуры.
Ключевые слова: агротуризм, экотуризм, сельский туризм, экология, инфраструктура, туристический потенциал, устойчивое развитие.

MUSTAQILLIK DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA AGRO VA EKOTURIZM TARAQQIYOTI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda agro va ekoturizmning rivojlanish bosqichlari, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, qishloq hududlarining turizm salohiyatidan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.
Kalit so‘zlar: agro turizm, ekoturizm, qishloq turizmi, ekologiya, infratuzilma, turizm salohiyati, barqaror rivojlanish.

Kirish. So‘nggi yillarda respublikamizda agroturizmning rivojlanishiga tabiiy, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillari va tamoyillarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston uchun agroturizm yangi yo‘nalish bo‘lib, uning tashkil etilishi va rivojlanishi zamonaviy jahon miqyosidagi jarayonlar, birinchi navbatda globallashuv va urbanizatsiya bilan bog‘liqdir. Butunjahon turistik tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, agroturizm dunyo bo‘ylab turizmni rivojlantirishning beshta asosiy strategik yo‘nalishlaridan bo‘lib, turli xil dam olish turlarini o‘zida mujassam etgan va xorijiy mamlakatlarda tez rivojlanayotgan yo‘nalish hisoblanadi. Agroturizmni turistik mahsulot sifatida baholash uchun diqqatga sazovor joylar, turar joy (qishloq uyi), qishloq taomi, madaniy hordiq chiqarish muhim ahamiyatga ega. Agroturizmga bo‘lgan talabni baholash va turistlar qishloq joylarda nimani qidirayotganligini tushunish kerak. Agroturizm keng tushuncha bo‘lib, uning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan Butunjahon turistik tashkiloti tomonidan taklif etilgan universal modelni tavsiya etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm - ko‘p hollarda mavsumiy hodisadir. Asosan, turistik faoliyatning cho‘qqisi yoz paytida, qishda esa pasayish kuzatiladi. Agroturizmni rivojlantirish qishloq xo‘jaligidagi mavsumiylikni yumshatish ehtiyojini, shuningdek asosiy faoliyatni qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari zaruriyatini belgilaydi. Agroturizm - qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq yo‘nalishdir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishisiz agroturizmni tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki turistning maqsadi qishloq hayoti, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyati bilan tanishishdir. Agroturizmning shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy asoslari, bir tomondan, agroturizmning o‘ziga ta’sir ko‘rsatadigan, ikkinchi tomondan, hududning (mamlakatning) farovonligiga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p darajali ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimini anglatadi[1]. Qishloq hududlarini isloh qilish jarayonida agroturistik faoliyat tamoyillarini to‘liqroq ko‘rib chiqish uchun agroturizmning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, agroturizm ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillarni o‘zida mujassam etib, qishloq resurslarini saqlash va ko‘paytirish nuqtai nazaridan foydalanishga imkon beradi, bu esa qishloq hududlarini barqaror rivojlantirishni ta’minlaydi. Agroturizmning rivojlanishiga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bir nechta katta guruhlarga bo‘lish mumkin: ijtimoiy-iqtisodiy (tashqi va ichki); ma’muriy, tabiiy-iqtisodiy; turistik motivatsiya. Ijtimoiy-iqtisodiy (tashqi va ichki) omillar. Tashqi ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

– shahar fuqarolarning dam olish va ta’tilga chiqish sxemalari;

– shahar aholisining farovonligi va to‘lov qobiliyati darajasi.

Xorijiy mamlakatlarning ta’til vaqtini rivojlantirish tendensiyasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, uning turizmga, xususan, agroturizmga ta’siri juda kattadir. Garchand dam olishga bo‘lgan talab kamaymasa ham, ta’til vaqtining qisqarishi yanada tezroq sur’atlarda davom etib boradi[2]. Natijada yangi motivli tavsifga ega bo‘lgan turistik bozor iste’molchisi paydo bo‘ladi, ya’ni daromad darajasi yuqori, ammo uzoq sayohatlarni amalga oshirish uchun etarlicha bo‘sh vaqt yo‘q. Bunday sharoitda agroturizmning pozitsiyasi tashqi turizmdan ko‘ra ko‘proq qulay va foydaliroq ko‘rinadi. Ushbu holatdagi agroturizm pozitsiyasi nafaqat yuqori daromadli bozor segmentiga yo‘naltiriladi, balki dam olishning arzon qiymatli shakli mavjudligi sababli o‘rta va kam daromadli aholi qatlamini ham qamrab oladi.

Ichki ijtimoiy-iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

– qabul qiluvchi mamlakat qishloq aholisining bandligi va turmush darajasi;

– turistlarni joylashtirish vositalari soni va sifati;

– turistlarga asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni, shuningdek ushbu ob’ektlarning texnik jihozlanishini ta’minlaydigan umumiy ovqatlanish, ko‘ngilochar va boshqa obyektlarning soni;

– mahalliy infratuzilmaning rivojlanganligi.

Agroturizm turizmning an’anaviy turlariga nisbatan eng qulay mavqega ega. Birinchi navbatda, mamlakat agrar sektorining hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisob olsak, qishloq aholisining bo‘sh vaqtlari ko‘proq va moliyaviy ahvoli tang holatda ekanligini aytishimiz mumkin. Bunday vaziyatda qishloq hududlarida ishsizlik darajasi yuqoridir. Qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning eng zaif pozitsiyasi bu moddiy-texnik baza hisoblanadi. Turistlarni qabul qilish uchun bo‘sh (shartli bo‘sh) o‘rinlar mavjud bo‘lsa (shu jumladan tashlandiq uylar), ularning barchasi, odatda, juda past sifatga egaligi bilan farqlanadi. Agroturizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi yana bir «nozik» tomoni bu qishloq aholi punktlarining infratuzilmasidir. Ba’zan belgilangan turistik ob’ektga borish qiyin va yuqori xarajat bilan cheklangan bo‘ladi. Bunday hollarda, yuqori daromadga ega bo‘lgan turistlarni jalb qila oladigan ekzotik turlarga sayyohat uyushtirish afzalroq hisoblanadi[3].

Agroturizmning eng jozibali xususiyatlaridan biri – bu ovqatlanishni tashkil etish bo‘lib, ekologik sof va yuqori sifatli mahsulotlardan tayyorlangan taom agroturistlarni yuqori darajada jalb etadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, agroturizm O‘zbekiston uchun yangi soha, biroq, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo, Samarqand va Toshkent viloyatlarida bu yo‘nalishda muayyan natijalarga erishilmoqda. Bu borada Farg‘ona vodiysida ham ancha ishlar qilinmoqda[4]. Birgina, o‘sha, anjirzorlarni turpaketlarga kiritilishi, sayohlarga bemalol bog‘ga kirib, o‘z qo‘llari bilan mevalarni uzib, istemol imkoniyatlarini berilganligi buni yorqin tasdig‘idir.

Bugungi kunda ekologik turizm jadal rivojlanib borayotgan turizm yo‘nalishlarining biridir. Bu sohaning jahon turizm industriyasidagi ulushi 4%, ekoturizm xizmatlaridan olinadigan daromad esa 55 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi[5]. O‘zbekiston ekoturistik resurslariga boy davlatlar qatoriga mansub hisoblanadi.. Shuningdek, mamlakatimizning Yevrosiyo doirasidagi iqtisodiy geografik o‘rni qulay tranzit xususiyatlarga ega. Shu sababli O‘zbekistonda ichki va xalqaro ekoturistik oqimni kuchaytirishning katta imkoniyatlari bor[6]. Biroq respublikamizda hozirgi kunda turizm sohasi asosan tarixiy-madaniy rekreatsion resurslarga tayangan holda rivojlanmoqda, mamlakatning tabiiy rekreatsion va ekoturistik salohiyatidan intensiv darajada foydalanilmayapdi. Shuning uchun xorijiy tajribalar asosida, O‘zbekiston sharoitini hisobga olgan holda, hududlarda ekoturizmni rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Respublikamizda ekoturizmni rivojlantirish orqali nafaqat tabiatni muhofaza qilish va biologik xilma-xillikni saqlash muammolarini ijobiy xal qilishga erishiladi, balki, shu bilan birga, tabiati inson tomonidan kuchli o‘zgartirilmagan chekka hududlarda yashovchi aholini ish bilan ta’minlash, uning turmush darajasining o‘sishiga imkoniyat yaratiladi[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda mamlakatimizda ekoturizmni tashkil qilish borasidagi xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil etishning milliy modelini yaratish maqsadga muvofiqdir. Bu borada quyidagilarga ahamiyat berish lozim. Eng avvalo, respublikamizdagi davlat qo‘riqxonalarini bosqichma-bosqich milliy biosfera rezervatlar shakliga o‘tkazish, ya’ni qo‘riqxona ichida, ularning biologik va landshaft xilma-xilligiga zarar etkazmasdan, lokal ekoturistik marshrutlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim[7]. Bunday tajriba hozirgi kunda Nurota davlat tog‘-yong‘oq qo‘riqxonasida amalga oshirilmoqda. Hududga kirish joyida turistlarni maxsus yo‘laklar orqali o‘tish joylari tashkil etilgan, turistlar foydalanish uchun transport vositalari (otlar, tuyalar) qo‘yilgan, gidlar xizmat ko‘rsatishi yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, turistlarning dam olishi va tunashi uchun kichik uy mexmonxonalari tashkil qilingan. Shunday faoliyat rejimini respublikamiz hududidagi boshqa muhofaza etiladigan hududlarda, shu jumladan xorijiy sayyohlar ko‘p tashrif buyuradigan Samarqand shahriga yaqin joylashgan Zarafshon milliy bog‘ida joriy etish mumkin. Bundan tashqari, respublikamiz tog‘oldi va tog‘li hududlarida aholi tomonidan ziyorat qilinadigan ko‘plab muqaddas qadamjolar bor. Ushbu qadamjolarga ko‘proq mahalliy aholi tashrif buyuradilar. Lekin ziyoratchilarning oqimi oldindan tashkil etilmagan, ya’ni stixiyali holda amalga oshirilmoqda. Bu borada Samarqand viloyatidagi Xazrati Dovud ziyoratgohini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Bu yerga kelayotgan ziyoratchilar oqimini tartiblashtirish hozirgi bosqichda hukumat tomonidan qo‘yilgan vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston mintaqalarida ekoturizmni rivojlantirishning yana bir ahamiyatli tomoni shuki, unda turistlarga yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar talab qilinmaydi. Turizmning bu turida an’anaviy hordiq chiqarish va maishiy qulayliklar ikkinchi darajali bo‘ladi. Tabiatga chiqindi chiqarmagan holda tabiatning betakror manzaralarini tomosha qilish uchun palatkalarni joylashtirish va kempinglarni o‘rnatishning o‘zi kifoya. Biroq, boshqa tomondan qaraganda, muammo shundaki, ekoturizm yuqori malakali mutaxassisni, ya’ni har bir guruh uchun maxsus ekolog, (gid) yo‘l boshlovchi–turistlarning xavfsizligini ta’minlovchi xodimni talab etadi. Bundan tashqari, ekologik turlarni taklif etuvchi firmalarning barcha harakatlari tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha qonunchilik talablari asosida olib borilishini nazarda tutadi. O‘zbekistonda ekoturizmning barqaror rivojlantirishning imtiyozli tomoni shundaki, sayohatlarni deyarli butun yil davomida tashkil etish mumkin.

Tahlil va natijalar. Ekoturizm mamlakatimizning milliy bog‘larida, O‘rmon xo‘jaliklarida, intensiv ekobog‘larda, shuningdek, tog‘li, adirli hududlarida, ixtisoslashgan muassasalarda muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish uchun qulay hududlar va imkoniyatlar mavjud. Shuningdek, Orol dengiziga tomosha uchun doimiy sayyohlik turlarini uyushtirish qiyin, ammo mazkur sayyohlikdan kelgan daromadning muayyan qismi mintaqa aholisining ma’lum qismini hayot darajasini ko‘tarishga, ular uchun ichimlik suvini

tozalovchi vositalar o‘rnatib berishga sarflanishi mumkin. Orol bo‘yi mintaqasini rivojlantirishga joriy yilda 8,4 trillion mablag‘lar sarf etildi. Shuni ham unutmaslik kerakki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rta qismida, ekoturizmni rivojlantirish imkoniyati mavjud transport yo‘llari chorrahasida joylashgan. Biroq, amalda bu salohiyat va imkoniyatlardan to‘la-to‘kis foydalanishga etarlicha e’tibor qaratilmayotgani bois, statistik ma’lumotlarga asoslanadigan bo‘lsak, respublikada turistlarni qabul qilish salohiyatiga nisbatan ularning kelib-ketishi 3 baravar kamdir[8]. Lekin shunga qaramasdan, oxirgi yillarda ekologik turizmni rivojlantirish uchun dastlabki qadamlar qo‘yildi va mazkur soxa infratuzilmasini shakllantirish tendensiyalari kuzatila boshlandi.

Shu o‘rinda, ayni kunda dunyoning ekosayyohlarini ko‘p qismini diqqat e’tiborini tortayotgan va mamlakatga valyuta oqimini kirib kelishiga sabab bo‘layotgan omillar xususida to‘xtalsak: Dunyoning mashhur besh bog‘lari. Yaponiyaning Rikugen bog‘lari (Tokio shahrida joylashgan ushbu ko‘hna bog‘, 500 yilga yaqin tarixga ega, rang-tasvir san’ati uslubida yaratilgan). Fransiyaning Versal bog‘lari (ushbu bog‘ Lyudovik XIII qirolligi davrida yaratilgan bo‘lib, o‘zining betakror arxitekturasi va dekorativ haykallari bilan dunyoning ko‘pgina sayyohlarini jalb etmoqda). Italiyaning Boboli bog‘lari (Florensiyadagi ushbu sayilgoh Italiya Renessansining eng yaxshi sayrgoh va ansanbllaridan biri hisoblanadi). AQShdagi Xantingtonning botanika bog‘lari (Ushbu bog‘ Kaliforniyaning San Marino shaharchasida joylashgan bo‘lib, u erda dunyoning 15 mingdan ziyod o‘simliklari parvarishlanadi, bog‘ 15 qismdan iborat: bolalar bog‘i, yapon bog‘i, xitoy bog‘i, sahro, subtropik bog‘lar, palmalar, kameliy va boshqalardan iborat). Kanadaning Butchart bog‘lari (Kanadaning Viktoriya shtatidagi ushbu bog‘ suv ostidagi bog‘ va choydan yasalgan uylari va atirgulzorlari bilan dunyo sayyohlarini lol qilib kelmoqda) dir. Mamlakatimizning o‘simliklar olami, flora va faunasi, qushlar olami rangbarang, dunyoga mashhur bog‘larni yaratishimiz, barpo etishimiz uchun imkoniyat, shartsharoitlarimiz etarlicha biz, resurslardan oqilona foydalangan holda, zamonaviylik va milliylikni uyg‘unlashtirib, milliy bog‘lar sonini ko‘paytirishimiz va investorlarni jalb etishimiz lozim. Sohada boy va etuk tajribaga ega bo‘lgan davlatlar Malayziya, Koreya, Amerika, Avstraliya, Shvesariya kabi davlatlar tajribalarini o‘rganib qo‘llashimiz lozim.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda agro va ekoturizm rivojida muammolarni bartaraf qilish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur: qishloq hududlarida zamonaviy infratuzilma yaratish, ekologik nazoratni kuchaytirish, turizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash, xorijiy davlatlarda O‘zbekiston turizmini faol targ‘ib qilish, ekologik loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, mahalliy aholining turizmga bo‘lgan qiziqishini oshirish.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda agro va ekoturizm sezilarli darajada rivojlandi. Mamlakatning tabiiy boyliklari va milliy qadriyatlari ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish uchun muhim omil hisoblanadi. Kelajakda mavjud muammolar bartaraf etilsa, agro va ekoturizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim va istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Имескенова Э.Г., Ишигенов И.В., А.Д. Манханов. Аграрный туризм (учебно – методическое пособие для самостоятелной работы студентов) – Улан-Уде: Изд-во. БГСХА, 2014.
2. Беспарточный Б.Д., Хромова А.В. Агротуризм: терминология и сущностные характеристики // Известия Юго-Западного государственного университета. 2014.
3. Amirov A. M. Agroturizmni rivojlantirish tamoyillari va omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 4/2022.
4. Рутинский М. Й. Сілский туризм: Навч. Посіб / М. Й. Рутинский, Ю. В. Зінко. – Киев: Знання, 2006.
5. Yakubjonova Sh.T., Urinova N.S. Farg‘ona vodiysida agroturistik marshrutlarni tashkil etish imkoniyatlari. https://www.researchgate.net/publication/367023508.
6. Xayitboev R. Ekologik turizm. – Samarqand, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2016 yil 2-dekabrdagi PF–4861-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-3077025.
8. Komilova F. Xalqaro turizm bozori. – T.: TDIU, 2001.
9. Usmonov M.R., Hasanov J.Y. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning ba’zi masalalari // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 57-jild, 2020 yil.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2-dekabrdagi “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-3077025.
11. Egamberdiev F.T. Yoqubjonova H. Yo. Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2018 yil.